



**BOSHLANG'ICH SINF TABIIY FAN DARSLARIDA HAYVONOT
OLAMINING XILMA-XILLIGI VA ULARNING TABIATDA TUTGAN
O'RNI MAVZUSINI O'RGATISH USULLARI**

Alimardonova Mo'tabar Xolmo'minovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

"Tabiiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Jo'rayeva Sabina O'ktam qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada hayvonot olamining xilma-xilligi va tabiatda tutgan o'rni va hayvonlarning turlari, hayvonlarning harakati, tarqalishi haqida so'z yuritildi.

Kalit so'z: hayvonot olami, muhit, tur, organizm, iqlim.

**METHODS FOR TEACHING THE DIVERSITY OF THE ANIMAL
WORLD AND THEIR ROLE IN NATURE IN PRIMARY SCHOOL
SCIENCE CLASSES**

Abstract: This article discusses the diversity of the animal world and its role in nature, as well as the types of animals, their movements, and their distribution.

Keywords: fauna, environment, species, organism, climate.

**МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ МНОГООБРАЗИЯ
ЖИВОТНОГО МИРА И ЕГО РОЛИ В ПРИРОДЕ НА УРОКАХ
ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.**

Аннотация: В статье рассматривается разнообразие животного мира и его роль в природе, а также типы животных, их передвижения и распространение.

Ключевые слова: фауна, окружающая среда, вид, организм, климат.



Barchamizga ma'lumki, tabiat bizni o'rab turgan murakkab va o'zaro bog'liq ekotizimlardan iborat. Bu tizimda hayvonot olamining o'rini alohidadir. Hayvonlarning xilma-xilligi nafaqat ularning o'ziga xos xususiyatlarini, balki ular tabiatda bajaradigan muhim vazifasi sanaladi. Hayvonlarning turlari juda ko'p bo'lib, ular turli muhitlarga moslashgan. Olimlarning fikricha, yer yuzida 1,5 milliondan ortiq hayvon turi mavjud va har yili yangi turlar kashf etilmoqda. Inson uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlaridan biri hayvonlar hisoblanadi. Hayvonlar insoniyatni go'shtga, yog'ga, moyga, sutga, tuxumga, baliq mahsulotlariga va organizm uchun kerak bo'lgan boshqa talablarni ta'minlaydi. Ma'lumotlarga ko'ra yer sharida kishilar yiliga hayvonlar hisobiga 180 mln tonna oqsil moddasi mavjud bo'lgan oziq-ovqat olishmoqda. Bularning barchasi hayvonot olamining tabiatda va inson hayotida roli juda katta ekanligidan darak beradi. Darslarni samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos usullardan foydalanish lozim.

Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida o'quvchilarga hayvonlarning xilma-xilligi va tabiatdagi o'rnini tushuntirish nafaqat ularning bilimlarini oshirish, balki ularda ekologik ong va atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Tabiat insonning hayotiy muhitini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Hayvonlar tabiatning ajralmas bir qismi bo'lib, tabiatdagi moddalar va energiya almashinuvida muhim rol o'ynaydi va hayvonlar o'simliklar bilan uzviy aloqada bo'ladi. Ba'zi hayvonlar yirtqich qushlar, zararkunanda kemiruvchilarni qirib, o'simlik hosildorligini oshiradi yoki ba'zi foydali hasharotlar o'simliklarni zararkunanda hasharotlardan va turli kasalliklardan saqlaydi. Masalan, boyqush bir yilda 1000 ta sichqonni yo'q qilib, 0.5 tonna donni saqlab qolsa, chumolilar o'rmonlarni kasalliklardan saqlaydi.

O'quvchilarda hayvonlarga mehr-muhabbat uyg'otish va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatish kelajakda ekologik barqarorlikni saqlashga hissa qo'shuvchi avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar haqida ma'lumot berish – ularning yo'qolib ketish sabablari va ularga



yordam berish yo‘llarini tushuntirish. Hayvonot olami haqida bilim berish bilan birga, o‘quvchilarga tabiatni asrash zarurligini tushuntirish ham muhim.

Hayvonlarning yashash muhiti ham turlicha bo‘lib, ular dengiz, cho‘l, o‘rmon, tog‘, tundra kabi joylarda uchraydi. Har bir hayvon turi o‘z ekotizimida muhim o‘rin tutadi va tabiatdagi muvozanatni saqlashga yordam beradi. Hayvonlarning turlari quyidagi asosiy guruhlariga bo‘linadi:

Sutemizuvchilar – masalan, sher, quyon, sigir.

Qushlar – masalan, burgut, qaldirg‘och, laylak.

Sudralib yuruvchilar – masalan, ilon, toshbaqa.

Amfibiyalar (ikki hayot kechiruvchilar) – masalan, qurbaqa.

Baliqlar – masalan, sazan, akula.

Hasharotlar – masalan, asalari, kapalak, chumoli.

Tabiatda hayvonlarning roli juda katta. Masalan, hasharotlar o‘simliklarni changlatadi, sudralib yuruvchilar zararli kemiruvchilar sonini tartibga soladi.

-Hayvonlar oziq-ovqat zanjirining ajralmas qismidir. Masalan, o‘simlikxo‘r hayvonlar o‘simliklarni iste‘mol qiladi, yirtqichlar esa ularni ovlaydi.

- Hasharotlar changlatuvchi sifatida o‘simliklarning ko‘payishiga hissa qo‘shadi.

-Asalarilar va kapalaklar gullarni changlatib, ekotizimni barqaror ushlab turadi.

-Chigirtkalar va boshqa umurtqasiz hayvonlar tuproqni yumshatib, uning unumdorligini oshiradi.

-Qurtlar chirindi hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy fan darslarida hayvonot olami, hayvonot dunyosi haqida tushunchalar berar ekanmiz, hayvonot olamining xilma-xilligi nafaqat tabiat muvozanatini saqlash kerakligi, insoniyat uchun ham muhimligini ta‘kidlab o‘tishimiz lozim. Hayvonlar oziq-ovqat, dori-darmon, va estetik zavq manbai hisoblanadi. Lekin bugungi kunda inson faoliyati tufayli, tabiatga nisbatan yomon munosabatda ekanligi ko‘plab hayvon turlari yo‘qolish xavfi ostida ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun biz hayvonlarni himoya qilish,



ularning yashash muhitini asrab-avaylash va tabiiy muvozanatni saqlash uchun barchamiz birdek mas'ulmiz." Hayvonot olamining xilma-xilligini saqlash – tabiat va insoniyat kelajagini ta'minlash demakdir."

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boshlang'ich sinf "Tabiiy fan" darsligi
2. Sayfullayev G'., Alimova L. (2021). Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'tishda amaliy ishlarni tashkil etish // Scientific progress. №6.
3. Nuriddinova M. I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. – 2004.
4. Mamanazarovna D. M., Ergashovna J. B. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida amaliy ishlarni tashkil etishning metodik asoslari // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – T. 2. – C. 138-141.
5. Milliy tadqiqot kengashi. (1996). Milliy fan ta'limi standartlari. Vashington DC: Milliy Akademiyalar matbuoti.